

UDC (UO‘K, УДК): 82.091-311.6

HUJJATLI ROMANLARDAGI TARIXIY SHAXSLAR SIYMOSI VA MUALLIF MAQSADI³

Dadaboyev Olimjon Ortiqovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Namangan davlat chet tillari instituti

E-mail: odadaboev@mail.ru

Orcid-ID: 0000-0003-2824-0586

ANNOTATSIYA

Maqolada hujjatli roman janrida yaratilgan asarlarda tarixiy shaxs – Amir Temur siymosining tasviri muallif maqsadi va estetik pozitsiyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tarixiy-badiiy matnlarda muallifning tanlov mezonlari, tarixiy manbalarga munosabati va siyosiy-ideologik pozitsiyasining tarixiy shaxs obrazini shakllantirishdagi rolini aniqlashdir. Muammo sifatida esa turli yozuvchilarning Amir Temur haqidagi tasavvurlari va talqinlaridagi tafovutlar, ularning tarixiy haqiqatni qay darajada xolis aks ettirgani muhokama qilinadi. Metodologik asos sifatida qiyosiy-tipologik tahlil, badiiy-huquqiy manba tahlili va kontekstual yondashuvlar qo'llaniladi. Qiyosiy tahlil uchun Jastin Marotsining "Tamerlane: Sword of Islam, conqueror of the world" (Amir Temur: Islom qilichi, jahon fotihi) nomli hujjatli romani va Pirmqul Qodirovning "Amir Temur siymosi" romani tanlangan. Tahlil natijasida aniqlanishicha, hujjatli romanlarda tarixiy shaxs obrazining shakllanishi mualliflik pozitsiyasi, tarixiy manbalarni tanlash mezonlari hamda siyosiy-madaniy kontekstga chambarchas bog'liq. Maqolada shuningdek, tarixiy romanlarda real voqealar aks ettirilishida mualliflarning tarixiylik va badiiylik o'rtasidagi muvozanatni qanday saqlaganiga baho beriladi. Xulosa o'rnida, tarixiy shaxs obrazining adekvat talqini uchun badiiy matnda tarixiy haqiqat va estetik talqin uyg'unligi zarurligi ta'kidlanadi.

KALIT SO'ZLAR

Hujjatli roman, tarixiy shaxs, muallif maqsadi, badiiy talqin, tarixiy haqiqat, ideologik yondashuv.

Received: June 6, 2025

Accepted: July 14, 2025

Available online: September 3, 2025

³**For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Dadaboyev O. Hujjatli romanlardagi tarixiy shaxslar siymosi va muallif maqsadi. // Komparativistika (Comparative Studies). – 2025. – Vol.2, № 3(7) – B. 38-52.

THE AUTHOR'S INTENTION IN THE PORTRAY OF HISTORICAL FIGURES IN DOCUMENTARY NOVELS

Dadaboev Olimjon Ortiqovich

Doctor of Philosophy in Philological Sciences, Associate Professor
Namangan State Institute of Foreign Languages

E-mail: odadaboev@mail.ru

Orcid-ID: 0000-0003-2824-0586

ABSTRACT

The article analyzes the image of a historical figure – Amir Temur – in works created in the genre of documentary story, from the point of view of the author's intent and aesthetic position. The main goal of the study is to determine the role of the author's selection criteria, attitude to historical sources and political and ideological position in the formation of the image of a historical figure in historical and artistic texts. The problem is considered to be the differences in the perception and interpretation of Amir Temur by different writers, the degree of their objective reflection of historical reality. Comparative-typological analysis, analysis of artistic and legal sources, contextual approach are used as a methodological basis. For comparative analysis, Justin Marozzi's documentary novel "Tamerlane: sword of Islam, conqueror of the world" and Pirimkul Kadyrov's novel "The Image of Amir Temur" were selected. As a result of the analysis, it was established that the formation of the image of a historical figure in documentary novels is closely related to the author's position, selection criteria for historical sources and political and cultural context. The article also examines how authors maintain a balance between historicity and artistic quality when depicting real events in historical novels. In conclusion, the need for a harmonious combination of historical truth and aesthetic interpretation in a fictional text is emphasized for an adequate interpretation of the image of a historical figure.

KEYWORDS

Documentary novel, historical figure, author's intent, artistic interpretation, historical truth, ideological approach.

ЗНАЧЕНИЕ АВТОРСКОГО ЗАМЫСЛА В СОЗДАНИИ ОБРАЗОВ ИСТОРИЧЕСКИХ ЛИЧНОСТЕЙ В ДОКУМЕНТАЛЬНОМ РОМАНЕ

Дадабоев Олимжон Ортикович

Доктор философии по филологическим наукам, доцент

Наманганский государственный институт

иностранных языков

E-mail: odadaboev@mail.ru

Orcid-ID: 0000-0003-2824-0586

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В статье с точки зрения авторского замысла и эстетической позиции анализируется образ исторической личности – Амира Темура в произведениях, созданных в жанре документального романа. Основная цель исследования – определить влияния авторского подхода к отбору фактов, его отношения к историческим источникам и политико-идеологической позиции на создание образа исторической личности в историко-художественных текстах. В качестве проблемы рассматриваются различия в восприятии и интерпретации личности Амира Темура разными писателями, степень объективности отражения исторической действительности в их произведениях. В качестве методологической основы используются сравнительно-типологический анализ, анализ художественных и правовых источников, контекстуальный подход. Сравнительный анализ выполнен на материале документальных романов Джастина Мароцци «Тамерлан. Завоеватель мира» и Пиримкула Кадырова «Образ Амира Темура». В результате анализа установлено, что создание образа исторической личности в документальных романах тесно связано с авторской позицией, критериями отбора исторических источников и политико-культурным контекстом. В статье также рассматривается, как авторы соблюдают баланс между историчностью и художественностью при изображении реальных событий в исторических романах. В заключение подчёркивается необходимость гармоничного сочетания исторической правды и эстетической интерпретации в художественном тексте для адекватной интерпретации образа исторической личности.	Документальный роман, историческая личность, авторский замысел, художественная интерпретация, историческая правда, идеологический подход.

KIRISH

Yevropada Amir Temur haqida yozilgan turli janrga oid badiiy adabiyot namunalari XX asrlarga kelib mazmun jihatdan o'zgacha mohiyat kasb eta boshladi. Dastavval g'arblik yozuvchilar Sohibqironning fothlik yurishlari haqida yozgan bo'lsalar, keyingi davr yozuvchilarini uning nafaqat sarkardalik mahorati, balki davlat arbobi va hattoki oddiy inson sifatidagi qirralari ham qiziqтира boshladi. Buning asosiy sababi esa Amir Temur hayotini tasvirlovchi eng ishonchli manbalar – G'iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshoh kabi solnomachilarning asarlari Yevropa tillariga tarjima qilinganidadir.

ASOSIY QISM

XX asrga kelib Yevropada Amir Temur haqida yozilgan asarlar janrining rang-barangligi kuzatiladi: bu turkum asarlarning mazmun-mohiyatiga Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Muiniddin Natanziy, Ibn Xaldun kabi Sharq solnomachilari asarlarining ta'siri juda katta bo'ldi. Hilda Hukhem, Harold Lemb, Jastin Marotsi, Lyusyen Keren, Jan Pol Ru kabi bir qator sharqshunoslarning Sohibqiron haqida yaratgan asarlari to'lig'icha ana shu solnomalardagi ma'lumotlar asosiga qurilgan edi. Bu asarlarda hujjatlarga asoslangani bois, badiiy obraz tasviridan ko'ra, ilmiy ma'lumotlarni berish birlamchi o'rin tutadi.

O'zbek adabiyotida ham XX asr oxiriga kelib ana shunday xususiyatlarga ega asarlar yaratila boshlandi. Bo'riboy Ahmedov, Pirmqul Qodirov, Poyon Ravshanov kabi tarixchi va yozuvchilarning Amir Temur haqida yaratgan asarlari ham to'lig'icha hujjatlarga asoslangan. Garchi Hilda Xukxem o'z asarini "hujjatli qissa", Jastin Marotsi o'z asarini "tarixiy roman", Poyon Ravshanov o'z asarini "roman", Pirmqul Qodirov esa o'z asarini "ilmiy badia" deb nomlagan bo'lsalar-da, bu asarlarning hammasini, janr xususiyatiga ko'ra, fikrimizcha, hujjatli nasr degan termin bilan atash maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Bu janr haqida professor Q.Yoʻldoshev shunday deb taʼrif beradi: *“Hujjatli nasr tarixiy shaxs, tarixiy hodisa yoki ijtimoiy voqelikni toʻligʻicha yoki qisman hujjatli materiallarga tayangan holda badiiy tadqiq etishga qaratiladi”* (Қозоқбой Ё., 2011, 6). Koʻrinadiki, badiiylik hujjatli nasr uchun ham eng asosiy va birlamchi belgidir. Ayni vaqtda, u sof badiiy nasrdan badiiy toʻqimaning minimal holati, tayanilgan hujjat va tarixiy maʼlumotlarning oʻzi muhim ijtimoiy qimmatga egaligi, qahramonlar tabiatidagi oʻziga xos fazilat yoki nuqsonlarni koʻrsatishga ortiqcha urinilmasligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, hujjatlarga badiiyat nuqtai nazaridan yondashilgani, hayotiy dalillar tarixiy istiqbolda koʻrsatilgani, qahramonlarning keyinchalik nechogʻli mashhur boʻlganining tasvirlanishi jihatidan hujjatli nasr jurnalistikadagi maqola va ocherk janridan farqlanib turadi. *Hujjatli nasrda personajlar ifodasiga badiiy tasvir talabi asosida yondashilsa-da, hujjatlarga, tarixiy voqealarga ishonchli dalil sifatida suyanish, uning teran ilmiy talqinini berish va faqat mavjud materiallar doirasida badiiy tadqiq etish lozim boʻlganidan undan tarixiy va ilmiy aniqlik talab etiladi* (Қозоқбой Ё., 2011, 6). Shu oʻrinda aniqroq tasavvur paydo qilish uchun Oʻrta Osiyo madaniyati tarixida hujjatli nasrning eng jonli namunasi sifatida Herodotning “Tarix” asaridagi tarixiy voqealar bayonini keltirish mumkin. Jumladan, “Tarix” asarining uchinchi kitobidagi *Kambis va uning qoʻl ostidagi jarchi, kohinlarga oid voqealar va hukmdor Kirning ularga munosabati, bizningcha, hujjatli nasrni oʻzida ifoda etadi. Zotan, Herodot faqat tarixiy voqealarni bayon qilib qolmaydi, balki ilmiy aniqlik yoʻlidan borgan* (Геродот., 1993, 157).

Mazkur janrda Amir Temur mavzusiga qoʻl urgan deyarli har bir yozuvchi uning xarakter qirralarini hamda uning botiniy va zohiriy xislatlarini ochib berishga harakat qilgan. Biroq bu inson xarakteridagi serqirralilik, bir vujudga jo boʻlgan shafqat bilmas jahongir fotih, bagʻrikeng sarkarda, qattiqqoʻl davlat arbobi, mehribon ota va ini, vafodor doʻst, bunyodkor arbob kabi xislatlar Yevropaning hamma yozuvchilarini boshi berk koʻchaga olib kirib qoʻygan edi. Bu insonni yovuz deya qoralashga moyil boʻlgan ijodkorlar uning insoniy fazilatlarini oldida toʻxtab qoldilar. Sohibqironni yomon deguvchilar shu onning oʻzida undagi yaxshi

xislatlarni ham birma-bir sanashdan tortinmadilar. Shuning uchun bo'lsa kerak, bu insonning turli qirralarini yoritishga jazm qilgan ijodkorlar Yevropada ham, O'rta Osiyoda ham yildan-yilga ortib bormoqda.

Amir Temurning hayot yo'li haqidagi tafsilotlar va ma'lumotlar nechog'li ko'p bo'lmasin, shunchalik chigal hamdir. Bu inson haqidagi tarixiy ma'lumotlarning ko'pligi uning xarakteri tasviridagi turli-tumanlikka olib kelgan. O'tgan olti asr mobaynida yangi-yangi tarixchilar, yozuvchilar Amir Temurni nisbatan yo qoralab, yo oqlab asarlar bitishgan. Kezi kelganda shuni ta'kidlash kerakki, ana shu yozuvchilarning barchasi o'z qo'lida mavjud bo'lgan tarixiy faktlargagina murojaat qila olishgan. Amir Temur hayotligi va undan keyingi davrga oid saqlanib qolgan hujjatlar, solnomalar, maktublaru axborotlar soni yetarlicha. Bu shaxs hayotidagi birgina voqea misolida guvoh va mualliflar turli xulosalar chiqarishgan. Boz ustiga, tarixiy ma'lumotlardagi chalkashlikka muayyan siyosiy moyillik yoki milliy vatanparvarlik tuyg'ulariga yo'g'rilgan baholar ham qo'shiladi va bundan qarama-qarshilik ortsa ortadiki, aslo kamaymaydi. Bundan tashqari, Amir Temur hayoti va faoliyatiga doir manbalardan foydalanish tartibi ham hamma ijodkorda har xil. Demoqchimizki, qaysidir yozuvchi mavjud manbalarni sinchiklab solishtirib chiqib, xolis baho berishga uringan bo'lsa, boshqasi o'ziga kerakli bo'lgan, o'z qarashlarigagina mos keluvchi manbani ma'qul ko'rgan. Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, xorij va o'zbek yozuvchilarining Amir Temur haqida yozgan hujjatli asarlari bir-biridan faqat shakliga ko'ra emas, balki mazmun va mohiyat jihatdan ham keskin farq qiladi.

Bu shuni ko'rsatadiki, Amir Temur haqida xorijda va yurtimizda yaratilayotgan hujjatli nasr janriga mansub asarlarni o'rganish ham muhim va dolzarbdir. Zero, zamonaviy sanalmish bu janrning "auditoriya"si xorij mamlakatlarida juda ham ulkan hisoblanadi.

Avvalo, xorijda hujjatli nasr janrida yaratilgan asarlardan biz Jastin Marotsi qalamiga mansub asarni tahlilga tortamiz. Shunisi aniqki, hujjatli nasr janriga oid bu asarning kirish qismining o'zidayoq yozuvchining Amir Temurga, qolaversa, turkiy xalqlarga nisbatan tutgan pozitsiyasi namoyon bo'ladi. Xususan, Jastin Marotsi asar

boshida ismlar va terminlar haqidagi izoh bo'limida shunday deydi: *“Markaziy Osiyo xuddi minalashtirilgan maydonni eslatadi. Va bu yerda gap faqat shahar nomlari haqidagina ketmayapti”* (Мароцци, Жастин., 2010, 3). Jurnalistlarga xos uslub. Jastin Marotsi asar boshidayoq g'arblik o'quvchini sergak tortishga majbur qiladi. Tanlagan jumalari ham kitobxon ongida Sharq haqida salbiy fikrlar paydo bo'lishiga olib keladi. To'g'ri, u osiyoliklar atoqli otlarining o'zi uchun qiyinchilik tug'dirganini aytmoqchi bo'ladi. Biroq tasvirda ham uslub bor. Birgina jumla bilan Jastin Marotsi Osiyo deganda shundoq ham janglar maydonini tasavvur qiladigan g'arbliklar ongida salbiy fikrlar uyg'ota oladi.

Yevropa ijodkorlari uchun Sohibqironning tarixiy obrazi va u haqdagi ma'lumotlar jumboq bo'lib qolavergan. Jumboqni hal qilish uchun esa ular Amir Temur haqidagi birlamchi manbalarni chuqur va izchil o'rganishlari lozim edi.

Ajdodlarimiz haqida yozilgan har bir asar bizning ma'naviy mulkimizdir. Jumladan, Jastin Marotsining asarini o'qib, buni yana bir bor his qilish mumkin. U Kristofer Marloning *“Buyuk Temur”* dramasi haqida so'z yuritib, shunday deydi: *“... dramadan olinadigan yana bir saboq bor. Bir adabiy tanqidchi yozganidek: “O'rta Osiyo va boshqa joylardagi voqealar shuni ko'rsatadiki, agar biz ularga yetarlicha baho bermasak, ularning avlodlari ertaga bizga tahdid qilishlari mumkin”* (Мароцци Жастин., 2010, 62). Shohid bo'lib turganimizdek, yuqoridagi nuqtai nazar va pozitsiyadan turib o'z fikrini keng kitobxon ommasiga yetkazmoqchi bo'lgan yozuvchi yoki adabiy tanqidchilar, afsuski, hozirgi zamonda ham yetarlicha topiladi. Taassuf bilan aytish kerakki, Yevropa yoxud Amerika va Sharq o'rtasidagi o'zaro anglashmovchiliklar, ziddiyatli qarashlar turli davrdagi adabiy jarayonlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Hattoki, o'tmish voqealarini hikoya qilish, izohlash, zamon odamlariga kimning aslida kim bo'lganini yetkazib berishda ham siyosatning nozik o'yinlari o'z so'zini aytmoqda. Yozuvchi tarixga xolis qaramas ekan, bu ahvol kitobxonlar ongida buyuk shaxslar haqida noto'g'ri tushunchalar paydo bo'lishiga sabab bo'lishi, shubhasiz. Adabiyot va tarix har qanday narsadan (bu o'rinda siyosatni nazarda tutmoqdamiz – O.D.) xoli bo'lmog'i darkor.

Jastin Marotsi asarida uning yozuvchilik pozitsiyasidan ko'ra jurnalistlik mavqesidan turib voqea-hodisalarga baho berishga urinishlari yaqqol sezilib turadi. Sariq matbuotning o'z maqsadiga erishish yo'lida yuzaki va soxta ma'lumotlarga tayanishi, o'quvchilar e'tiborini ko'proq tortish uchun "shov-shuvga asoslangan" vahimali ma'lumotlarni omma e'tiboriga havola etishi kabi uslublar asarda yaqqol sezilib turadi.

Bir qarashda yozuvchi, asosan, Sharq va G'arb muarrixlari bergan ma'lumotlarni kitobxonlarga yetkazib berish vazifasini bajarish bilan cheklanishga harakat qilganga o'xshaydi. Biroq tarixiy manbalardan u ustalik bilan foydalangan va ularni o'zining maqsadiga bo'ysundira olgan. Asarni o'qir ekanmiz, uning yozilishidan anglashiladigan yagona maqsad kunday ravshan bo'lib qoladi. Yozuvchi Amir Temur shaxsiga bir tomonlama yondashgan.

Ijodkor va olimning tarixiy shaxslarga yondashuvida garchi tamoyillar o'ziga xos bo'lsa ham, ijodkordan tarixchi olim bo'lish ham talab etiladi. *"Davlat yoki xalq hayotini yorituvchi tarixchi bizga yilnomalar, memuarlar, turli mazmundagi yozishmalarga asoslangan holda, davr arboblarning jonli fe'l-atvorlariga tayangan holda butun davr manzarasini yaratadi"* (Буслаев Ф., 1990, 471). Ammo tarixiy mavzuda asar yaratayotgan ijodkor faqat og'zaki ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsa, asosiy maqsaddan chalg'iydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Jastin Marotsi Sharq solnomalaridagi ma'lumotlarni kitobxonga doim ham to'g'ri yetkazishga harakat qilmagan. Ba'zi o'rinlarda arziyasday ko'ringan dalillarni tushirib qoldirish orqali tarixiy shaxs va u bilan bog'liq tarixiy voqea haqidagi qarashlarni o'zgartirib yuborgan. Masalan, Bag'dod voqeasi haqida yozarkan, Amir Temurning shahar ahlidan ko'plab kishilarga rahm-shafqat qilib, avf etgani haqida yozmaydi. Marotsi ma'lumotlarini o'qir ekanmiz, Bag'dod ahli tamomila qirilib ketgan, degan tasavvur paydo bo'ladi. Vaholanki, Nizomiddin *Shomiy ayni o'sha voqeani aniq va batafsil tasvirlab bergan. Uning yozishicha, shahar qamalidan chiqib kelgan ko'plab odamlarga Sohibqiron qo'shinlari yaxshi muomala qilishgan. Qirq kun davom etgan qamalning har kunida bunday qochqinlardan anchasi shaharni tark etgan edi* (Низомиддин

Шомий., 1996, 313). Jastin Marotsi asarini o'qigan kitobxon, u o'zini bu ma'lumotlardan go'yo bexabardek ko'rsatganiga amin bo'ladi. Tarixiy voqea va shaxsga "xolisona" baho berishning bunday yo'li ma'lum bir maqsadga qaratilgani, shubhasiz. Marotsi solnomalardan o'zi ko'rishni va yozishni xohlagan ma'lumotlarnigina tanlab oladi, Sohibqiron shaxsini ro'y-rost ko'rsatadigan dalillar haqida lom-mim demaydi. Yoki Damashqning fath etilishi voqeasi haqida yozar ekan, garchi Marotstsi o'zi ham ishonmasa-da, Shiltberger bergan ma'lumotlarni keltirib o'tishni lozim topadi. *"Shiltbergerning yozishicha, – deydi u, – Ummaviylar masjidi ichiga yig'ilgan 30000 din vakillari va ularning qarindosh-urug'lari yoqib yuborilgan"* (Мароцци, Жастин., 2010, 156) Vaholanki, *Damashq aholisini o'ldirmaslik haqida Amir Temur farmon bergani haqida Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" sida yozilgan* (Низомиддин Шомий., 1996, 308) va Marotsi ham ana shu ma'lumotni e'tiborga olishi mumkin edi. S arq manbalarini inobatga olishni istamagan Marotsi hech bo'lmasa boshqa G'arb manbalarini ham e'tiborga olishi mumkin edi. Xususan, *Bertrando de Mignanelli ham Damashqqa o't qo'yilishidan oldin uning aholisini shahar tashqarisiga olib chiqilishiga farmon bo'lgani haqida yozgan* (Walter J. Fishel., 1956, 201-232). Biroq bu ma'lumot ham Marotstsining maqsadiga to'g'ri kelmasdi. *Mignanelli Damashqning katta shahar bo'lmagani, Italiyaning Piza shahridan kichik ekani va u yerda taxminan 100 ming aholi yashagani haqida xabar beradi* (Walter J. Fishel., 1956, 201-232). Agar 30 ming kishi yoqib yuborilganida u, albatta, bu haqda yozgan bo'lardi. Demak, yuqorida aytib o'tganimizdek, Marotsi o'z manfaatiga xizmat qiladigan ma'lumotlardangina foydalanishni istaydi. Ko'ra bila turib yolg'on ma'lumot bilan XX asr kitobxoni ongida Amir Temur haqida noto'g'ri taassurot uyg'otadi.

Marotsi aksariyat hollarda Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi"ga asoslanadi. U asosiy e'tiborini Sohibqironning fothlik yurishlari va buning oqibatlariga qaratadi. Kitobxon e'tiborini Sohibqironning salbiy tomonlariga qaratishga harakat qiladi. Jumladan, Sohibqiron harami haqida gapirar ekan, u, *"Amir Temur xotinbozligi bilan mashhur edi"* - deb yozadi (Мароцци, Жастин., 2010, 50) Vaholanki, tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'rta asrlar Sharqida ko'p

xotinlilik nafaqat hukmdorlar, balki o'ziga to'q aholi qatlami orasida ham keng tarqalgan odatdagi hayot tarzi bo'lgan edi. Buning ustiga, yengilgan hukmdorlarning harami ham g'olib hukmdorning mulki hisoblangan. Bu Amir Temurgacha shakllanib bo'lgan odat edi. Biroq Marotsi bu yozilmagan qoidani bilsa-da, Sohibqiron nomiga ayblov shaklida tirkaydi. Bir o'rinda u, *“Temur o'zidan keyin muzaffarona yurishlari va ulkan qurilishlari haqida xotira qoldirishga qattiq urinadi, ammo bu natija bermaydi”*, – deb yozadi (Мароцци, Жастин., 2010, 60). Albatta, muallif Amir Temur qoldirgan mahobatli inshootlarni, saroylarni, u haqda ko'plab yozilayotgan asarlarni bilmaydi, deyish bir yoqlamalik bo'lar edi. Marotsi Amir Temurning bunyodkorlik ishlaridan yaxshi xabardor bo'lsa-da, o'zini bilmaganday qilib ko'rsatadi. Zero, uning Amir Temur haqidagi manbalarni o'qigani, u tufayli Movarounnahr va Xurosonda Uyg'onish davri yuz bergani, uning o'zi va avlodlari amalga oshirgan obodonchilik ishlari, ilm-fan nihoyatda taraqqiy qilganini juda yaxshi biladi. Faqat Marotsining niyati boshqacha, xolos. Marotsi asarini yozish davomida Ibn Arabshoh solnomasiga 70 marotabadan ortiqroq murojaat etgan. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”siga ham deyarli shuncha marotaba murojaat qilgan. Biroq diqqatni tortadigan tomoni shundaki, u Sharafiddin Ali Yazdiyning faqat harbiy yurishlar natijalari borasidagi hikoyalarigagina murojaat qilgan, xolos.

Ba'zi o'rinlarda uning xolis baho berishga urinishlari ham sezilib turadi. Jumladan, bir necha o'rinlarda Marotsi Ibn Arabshohning Amir Temur haqidagi fikrlariga to'xtalgandan so'ng, sharqlik bu arab tarixchisining Sohibqironni yomon ko'rganidan hamma ma'lumotlarini ishonchli, deb qarab bo'lmasligiga ham ishora qiladi. Uning *“Arabshohni xolis biograf deb hisoblab bo'lmaydi”* (Мароцци Жастин., 2010, 91) degan gapi ayni shu maqsadda aytilgan. Biroq shunday bo'lsa-da, asar davomida Jastin Marotsining Ibn Arabshoh ma'lumotlariga xayrixohligi yaqqol sezilib turadi.

Jastin Marotsini bir so'z bilan XX asrning Ibn Arabshohi deb atash mumkin. Uning asaridan olinadigan saboq o'quvchilarning turkiy qavmlar tarixi, qolaversa,

sohibqiron Amir Temur tarixiy shaxsi haqidagi noto'g'ri xulosalar chiqarishiga sabab bo'ladi.

Ko'pgina yevropalik sharqshunoslar qatori Jastin Marotsi ham Anqara jangidagi zafarni Amir Temur uchun eng ulkan g'alaba bo'lgan, deb hisoblaydi. Vaholanki, Sharq solnomalarida bu g'alabaga katta e'tibor qaratilmagan. Amir Temurning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi eng katta voqea sifatida tilga olingan. Amir Temurning Sulton Boyazid bilan jang qilishni xohlamagani tarixdan ma'lum.

Biroq shuni ta'kidlash lozimki, garchi Jastin Marotsi asar davomida Amir Temur xarakterining salbiy qirralarini ko'rsatib berishga harakat qilgan bo'lsa-da, uning Sohibqiron shaxsidagi sarkardalik mahoratiga, hukmdorlik qudratiga botiniy ixlosmandligi asardan sezilib turadi. Asar avvalida Marotsi podpolkovnik P.M.Sayksning "Fors tarixi" kitobidan epigraf keltiradi. Unda, xususan, shunday deb yozilgan: *"U nafaqat nihoyatda qo'rqmas va jasur, balki haddan tashqari o'tkir zehqli, mard, himmatli, tajribali va tadbirkor inson edi"* (Мароцци Жастин., 2010, 6). Mana shuning o'zi ham Marotsidagi Amir Temur shaxsiga bo'lgan ichki hurmatning nishonasidir.

O'zbek adibi Pirimqul Qodirovning "Amir Temur siymosi" (Қодиров Пиримқул., 2007) asari esa mazmun-mohiyati bilan Jastin Marotsi asaridan keskin farq qiladi. Asarda nufuzli tarixiy manbalarga asoslangan ilmiylik bilan tajribali, iste'dodli adibning badiiy mahorati uyg'unlashib, bir-birining ta'sir kuchini oshirgan. Shu tufayli asar chindan sodir bo'lgan olamshumul tarixiy voqealarni va ularning bosh qahramoni – Amir Temur shaxsiyatini qiziqarli syujet, puxta o'ylangan kompozitsiya, romaniy tafakkur yordamida ulug'vor joziba bilan ko'rsatadi. Biroq asarni sinchiklab o'qir ekansiz, muallif faqat Amir Temur bilan bog'liq yaxshi voqealar, uning hayot yo'lida uchragan, Amir Temur dramatizmini kuchaytiruvchi g'ov va to'siqlar, qiyinchiliklar kabi o'quvchida Amir Temurga nisbatan simpatiya uyg'otuvchi voqealar haqida yozganiga guvoh bo'lasiz.

Yozuvchi xorij o'quvchilarini ko'proq qiziqtiradigan Isfahon, Damashq va Dehli voqealariga o'z munosabatini bildirmaydi. Bu esa voqealarni bir tomonlama

tasvirlagan, degan tushunchalarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, tarixiy voqealarni bayon etish va izohlashda P.Qodirov aksar hollarda “Temur tuzuklari” asariga tayanib ish ko‘radi.

Pirimqul Qodirovning “Amir Temur siymosi” asari o‘zbek adabiyotida tarixiy-biografik roman janrining yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Asar ilk bor 1996-yilda “Yozuvchi” nashriyotida bosilib chiqqan bo‘lib, 2007-yilda qayta nashr qilingan. Mazkur roman yozuvchining chuqur tarixiy bilimlari, badiiy tafakkuri va milliy ong asosida yaratilgan asari bo‘lib, unda XIV asrning yirik davlat arbobi, sarkarda va strateg – Amir Temur siymosi keng badiiy tasvirda ifodalanadi.

Asarning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u faqat tarixiy faktlarning soddagina bayoni emas, balki tarixiy shaxsiyatning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, qaror qabul qilishdagi ikkilanishlari, irodaviy fazilatlari va shaxsiy dramalari bilan boyitilgan. Qodirov tarixiy materialga adabiy-badiiy yondashgan holda, uni dramatik konfliktlar, dinamik syujetlar, psixologik portretlar orqali badiiylashtiradi. Ayniqsa, asardagi kompozitsion uyg‘unlik va romaniy tafakkur orqali tarixiy shaxs obrazini murakkab ijtimoiy-siyosiy kontekstda tasvirlashga erishilgan.

Romanning mohiyatan o‘ziga xos jihatlaridan biri — u G‘arb tarixchilari, xususan, Jastin Marozzi (Justin Marozzi) kabi mualliflar tomonidan yozilgan asarlardan tubdan farq qiladi. Agar Marozzi o‘zining “Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the World” nomli asarida Temurni ko‘proq siyosiy va harbiy figura sifatida tahlil qilsa, Qodirov uni insoniy, ruhiy, madaniy, g‘oyaviy jihatdan teranroq yoritishga harakat qiladi. Bu orqali o‘zbek yozuvchisi Amir Temurning xalq ongidagi tarixiy-milliy qiyofasini tiklashga intiladi.

Shu bilan birga, tanqidiy yondashuv nuqtayi nazaridan olganda, asarda muallifning Temur shaxsiyatiga nisbatan ortiqcha idealizatsiya holatlari kuzatiladi. Ko‘proq ijobiy voqealar, g‘ov va to‘siqlarga qarshi kurashish sahnalari tasvirlangan bo‘lib, tarixiy shaxsga nisbatan o‘quvchida simpatiya uyg‘otish maqsad qilingan. Bu holat Isfahon, Damashq, Dehli kabi yirik tarixiy voqealarga muallif tomonidan befarq munosabatda bo‘lingani, yoki ular yuzasidan chuqur tahlil berilmagani bilan

yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Asarda muallif ko'p hollarda "Temur tuzuklari"ga tayangan holda tarixiy asos keltiradi, bu esa tarixiy manba tanlashda selektivlikni ko'rsatadi. (Қодиров П., 2007)

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, "Amir Temur siymosi" romanining tarixiy va badiiy yondashuvlari bir-birini boyitadi, ammo ayni paytda tarixiy ob'ektivlik va badiiy romantizatsiya o'rtasidagi muvozanatni muhokama qilishga sabab bo'ladi. Asar o'z davrining tarixiy shuurida Temur obrazini qayta tiklash va uni madaniy xotirada barqarorlashtirish vazifasini bajaradi.

Umumlashtirib aytganda, Pirimqul Qodirovning "Amir Temur siymosi" romani o'zbek adabiyoti uchun nafaqat tarixiy obrazni badiiy talqin etishdagi muvaffaqiyatli tajriba, balki milliy tarixga, ma'naviyatga va merosga bo'lgan estetik yondashuv namunasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

O'tmishdagi tarixiy shaxslar va voqealarga XX-XXI asr ijtimoiy-siyosiy qarashlari, insonparvarlik g'oyalari asosida baho berish tarix va tarixiy shaxs haqida noto'g'ri xulosalar chiqarishga sabab bo'ladi. Bu masala hujjatli romanlarda tarixiy shaxslar obrazini yaratish jarayoniga ham bevosita aloqador. Bularning barchasi tarixiy shaxslarga o'z davri nuqtai nazaridan va o'z davridagi ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy tomondan turib baho berish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Zero, zamon va makon almashinuvi qarashlar va g'oyalar almashinuviga ham olib keladi. Ko'plab asrlar oldin ro'y bergan voqealar, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga badiiy-estetik yo'nalishda hozirgi zamon dunyoqarashi bilangina baho berib bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Буслаев Ф. О литературе. Исследования. Статьи. – М.: Художественная литература, 1990. – 512 с.
2. Геродот. История в девяти книгах. – М.: Ладомир, 1993. - 400 с.
3. Мароцци, Жастин. Тамерлан. Завоеватель мира. – М.: Полиграфиздат, 2010. – 445 с.

4. Қозоқбой Йўлдош. Олимнинг насри // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2011 й. №11.
5. Қодиров Пиримкул. Амир Темур сиймоси. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2007. – 247 б.
6. Walter J. Fishel. A New Latin Source on Tamerlane's Conquest of Damascus (1400/1401): (B. de Mignanelli's "Vita Tamerlani" 1416). Tr. Walter J. Fishel. Oriens, Vol. 9, No. 2 (Dec. 31, 1956).
7. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. – Тошкент: “Меҳнат” нашриёти, 1992. - 327 б.
8. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – 351 б.
9. Эрматов Б. Амир Темур ғарбий Европа адиблари нигоҳида. – Тошкент: Университет нашриёти, 2017. – 148 б.
10. Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 1996. – 528 б.
11. Шарафуддин Яздий. Зафарнома. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти, 1997. – 364 б.

REFERENCES

1. Buslaev, F. (1990). *O literature: Issledovaniya, stat'i* [On Literature: Studies and Articles]. Moscow: Khudozhestvennaya literatura.
2. Herodotus. (1993). *Istoriya v devyati knigakh* [The History in Nine Books]. Moscow: Lodomir.
3. Marozzi, J. (2010). *Tamerlan: Zavoevatel' mira* [Tamerlane: The Conqueror of the World]. Moscow: Poligrafizdat.
4. Yo'ldosh, Q. (2011). Olimning nasri [The Prose of the Scholar]. *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, (11).
5. Qodirov, P. (2007). *Amir Temur siymosi* [The Image of Amir Temur]. Tashkent: O'zbekiston National Publishing and Information Center.

6. Fishel, W. J. (1956). A new Latin source on Tamerlane's conquest of Damascus (1400/1401): B. de Mignanelli's *Vita Tamerlani* (1416) (Trans. Walter J. Fishel). *Oriens*, 9(2), 294–330.
7. Ibn Arabshah. (1992). *Amir Temur tarixi* [The History of Amir Temur]. Tashkent: Mehnat Publishing House.
8. Fayziyev, T. (1995). *Temuriylar shajarasi* [The Genealogy of the Timurids]. Tashkent: Yozuvchi.
9. Ermatov, B. (2017). *Amir Temur G'arbiy Yevropa adiblari nigohida* [Amir Temur in the Eyes of Western European Writers]. Tashkent: University Publishing House.
10. Nizomiddin Shomiy. (1996). *Zafarnoma* [The Book of Victory]. Tashkent: O'zbekiston Publishing House.
11. Sharafuddin Yazdi. (1997). *Zafarnoma* [The Book of Victory]. Tashkent: Sharq Publishing and Printing Concern.